

IMKONIYATI CHEKLANGAN SHAXSLARNING KOMPYUTER SAVODXONLIGI BILIMLARINI BILISHINING AFZALLIKLARI

Turgunboyev Mirzabek Rustambek o'g'li

Respublika imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus texnikum Maxsus fan o'qituvchisi:

Sagdullayev Diyor

Maxsus fan o'qituvchisi:

Annotatsiya: Ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirish, uni jahon andozalari darajasiga ko'tarish, fan sohasidagi yangiliklarni amaliy hayotga tatbiq etish muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, ularda fan asoslariga nisbatan bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Ushbu jarayonda kompyuter texnologiyalarining o'rnini bugungi kunda juda muhim hisoblanadi. Imkoniyati cheklangan o'quvchilarga ta'lim berishda ham kompyuter texnologiyalari asosiy rolni bajaradi, sababi bunday o'quvchilarning kamchiliklari har xil bo'ladi. Kompyuter texnologiyalari esa ularning nuqson, kamchiliklariga qarab moslashishi va dasturlanishi mumkin. Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan shaxslarning kompyuter savodxonligi bilimlarini bilishining afzalliklari va foydalari haqida, shuningdek kompyuter texnologiyalarining bugungi kundagi ahamiyati haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: kompyuter, dastur, o'quvchi, ta'lim, vazifa, fan, axborot-kommunikatsiya, internet, dars.

Imkoniyati cheklangan (nogiron) - bu shaxsiy ehtiyojlarini va ijtimoiy hayot yetishmovchiliklarini qisman yoki to'liq o'zi mustaqil ta'minlay olmaydigan istalgan shaxs. Nogironlik qabul qilingan tasnifnomaga ko'ra organizmdagi domiy buzilishlarga olib keluvchi, hayot faoliyatining cheklanishiga sabab bo'luvchi alohida ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj tug'diruvchi ijtimoiy zaiflik sifatida talqin etiladi. Bunday ijtimoiy yordam yo'nalishlaridan biri zamonaviy jamiyatda tobora katta ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy rehabilitatsiya hisoblanadi. Imkoniyati cheklanganlarni ijtimoiy rehabilitatsiyalash ijtimoiy yordamning murakkab zamonaviy va muhim tizimlaridan biridir.

Imkoniyati cheklangan insonlarning asosiy muammosi quyidagilarda:

- Olam bilan aloqaning buzilganligi;
- Kattalar va tengdoshlari bilan aloqaning qashshoqligi;
- Tabiat bilan muloqotning cheklanganligi;
- Bir qator madaniy qadriyatlarining yetishib bo'lmasligi muammosi;
- Elementar ta'limni ololmaslik.

Bu muammo faqatgina sub'yektiv bo'lmay, balki ijtimoiy-siyosiy hamdir.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilar ta'limining keng ko'lamliligi va serqirraliligini hisobga olgan holda o'rta va kasbiy ta'lim jarayonini tashkil etish talab qilinadi.

Ushbu ko'rsatilgan muammolarni hal qilishda kompyuter bilan ishlash, internet, onlayn platformalar orqali muloqot qilish zarur bo'lib, kamchilik va o'ziga yetishmayotgan narsalarni kompyuter texnologiyalari vositasida to'ldirib olishi mumkin.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilarning kompyuter savodxonligi bilimlarini o'zlashtirishning afzalliklari bilan tanishib o'tamiz.

Ta'lim muassasasidagi dars jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari haqiqiy ma'lumotlarni olishga undaydi, ya'ni har qanday muammoni hal qilish va ta'lim jarayoni bilan bevosita aloqasi bo'lgan shaxslarni jalb qilish uchun zarur ta'lim faoliyati kabi bir qancha zarur omillar uchun imkon beradi. Shuningdek, o'quvchilarga kompyuter vositalaridan samarali foydalanish yo'llarini o'rgatish juda muhimdir.

O'quvchilarga qulay muhit yaratish uchun, bu jarayonda zamonaviy texnologiyalar katta rol o'ynashini hisobga olish kerak. Masalan, kompyuter dasturlari o'quv jarayonini real kuzatish, kerak bo'lganda ko'p marta takrorlashga imkon yaratishi mumkin. Bunday dasturlar o'quvchilarga kuzatish bilan birga yozib olish, ularning tanqidiy va mustaqil fikrlashi, tadqiqot va tajribalar orqali muammolarni hal qilishga undaydi.

Kompyuter texnologiyalari dasturlashtirilgan o'qitish g'oyalarini rivojlantiradi, zamonaviy kompyuterlar va telekommunikatsiyalarning yirik imkoniyatlari bilan bog'liq bo'lgan o'qitishning mutlaqo yangi, hali tadqiq qilinmagan texnologik variantlarini ochib beradi. Telekommunikatsion tizimlar, shu jumladan, kompyuterlar hozirgi zamon ilmiy-texnik taraqqiyotning mahsuli hisoblanadi.

O'quvchilarning individual tabiiy qobiliyatlarini hisobga olib, imkoni boricha maksimal darajadagi axborotni o'zlashtirish faqat kompyuterlar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Ya'ni o'qitishning kompyuter texnologiyasi asosida o'quv jarayonini jadallashtirish va samaradorligini maksimal darajada oshirishga erishish mumkin.

Kompyuter texnologiyalari o'quvchilarda ijodkorlik va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi, o'z tasavvurlarini erkinlashtirishga yordam beradi. O'qituvchi pedagogikasi bilan uyg'unlashganda, u ijodkorlik uchun cheksiz imkoniyatlarni taqdim etadi.

O'qitishning kompyuter texnologiyasi, kompyuterning inson individual qobiliyatlariga mosligiga tayanadi. O'qitish jarayonini optimal darajada tezkor boshqarish imkoniyati mavjudligi, bu o'qitish turining universal muloqoti ko'rinishida ekanligi, psixologik qulayliklari, o'qitishning cheklanmaganligi bilan ajralib turadi.

Bu iqtidorli, o'ta qiziquvchan o'quvchilar uchun mustaqil ta'lim olish vositasi.

Kompyuterli o'qitishning afzalliklari juda ko'p, jumladan:

- O'quvchilarda ma'lum malakalarni shakllantirish vaqti qisqaradi; mashq qilinadigan topshiriqlar soni oshadi;
- O'quvchilarning ishlash sur'ati jadallashadi, kompyuter tomonidan faol boshqarishni talab qilinishi natijasida o'quvchi ta'lim subyektiga aylanadi;
- O'quvchilar kuzatishi, mushohada qilishi qiyin bo'lgan jarayonlarni modellashtirish va bevosita namoyish qilish imkoniyati hosil bo'ladi;
- Kommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda darsni uzoqdagi manbalar bilan ta'minlash imkoniyati hosil bo'ladi;

– Kompyuter bilan muloqot didaktik o‘yin xarakterini oladi va bu bilan o‘quvchilarda o‘quv faoliyatiga motivasiya kuchayadi va hokazo.

Ushbu sabablar tufayli ta‘limni kompyuterlashtirish muammolarini hal qilish bo‘yicha barcha iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda, ular bilan bir qatorda respublikamizda ham turli yo‘nalishdagi tadqiqot ishlari o‘tkazilmoqda.

Kompyuterlar rivoji bugungi kunda o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro ta‘sirini kuchaytirdi. Endilikda o‘qituvchilar kompyuterda turli vositalar yordamida nazariyalarning amaliy jihatlari o‘quvchilarga o‘rgatib, ko‘rsatishlari mumkin. O‘quvchilar endi turli qiyin mavzularni qiziqarli tarzda oson tushuna oladilar.

Ta‘limni kompyuter texnologiyalari asosida tashkil etishning noan‘anaviy usullari quyidagilardan iborat.

Kompyuter va internet. Zamonaviy ta‘lim tizimida kompyuter ta‘limi muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilar uchun katta kitoblardan ma‘lumot izlashdan ko‘ra internetda tadqiqot o‘tkazish qulayroqdir. Ma‘lumotlarga kirish ancha oson va internetda mavjud. Kompyuterlar ma‘lumotni qo‘lda yozilgan yozuvlarni olishdan ko‘ra saqlashni osonlashtiradi.

Kompyuterda online ta‘lim. Ta‘lim muhiti onlayn ta‘lim orqali o‘zgartirilmog‘da. Masofaviy ta‘lim kompyuter texnologiyalari tufayli endi juda qulay bo‘lib bormog‘da. O‘quvchilar boshqa joyda bo‘lsa ham, o‘quvchilar va o‘qituvchilar samarali o‘zaro hamkorlik qilishlari mumkin. O‘quvchilar o‘z uylarida qulay sharoitda o‘qishlari va kerak bo‘lganda ma‘lumotlarni almashishlari mumkin.

Kompyuterda o‘quvchi tadqiqoti. Internet yordamida biz kompyuterlarda ilg‘or tadqiqotlar o‘tkazishimiz mumkin.

Tadqiqotning bu shakli oddiy, dunyo bo‘ylab veb-kutubxonalar va internetga ulangan turli veb-saytlarga kirish uchun kompyuterdan foydalanishni o‘z ichiga oladi.

Kompyuterda yangi texnologiyalarni o‘rganish. Texnologiyalar doimo rivojlanib borayotganligi sababli, ta‘limda kompyuterlardan foydalanish o‘quvchilarga yangi vositalar va bilimlarni o‘rganish imkonini beradi, bu ularni kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan texnologik o‘zgarishlarga tayyorlaydi.

Online kutubxona. Kompyuterlar davrida kutubxonaga tashrif buyurish shart emas. Hozirgi kunda ko‘plab onlayn kutubxonalar mavjud; kompyuter yordamida onlayn kutubxonadan kitoblarni bemalol o‘qish mumkin.

Kompyuterga asoslangan treyning. O‘qituvchilar tomonidan audio-vizual vositalar yordamida uchun ko‘plab loyihalar va ta‘lim dasturlari yaratiladi yoki o‘rnatiladi.

Ushbu o‘quv dasturlari ko‘pincha kompakt disklarda ma‘lum bir mavzu bo‘yicha ma‘ruzalar shaklida taqdim etiladi.

O‘quvchilar bu dasturlarni xohlagan vaqtda uyda o‘qishlari, o‘rganishlari mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak ta‘limda kompyuter - bu o‘quvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda yangi texnik - didaktik vosita bo‘lib, ularning politexnik tafakkurini kengaytirib va chuqurlashtirib, ularda kreativlik bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishni yuqori bosqichga ko‘taradi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. D.S.Qaxarova. Inklyuziv ta'lim texnologiyasi. O'quv qo'llanma. T, 2014
2. R.Sh.Shomaxmudova. Maxsus va inklyuziv ta'lim. Toshkent, 2011
3. L.R.Muminova. Inklyuziv ta'lim. Toshkent, 2014
4. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. T.: Fan, 2007
5. S.S. Qosimov. Axborot texnologiyalari. Toshkent, 2007
6. M.G.Davletshin. Ta'limning psixologik asoslari. T, 2000